

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

TA'LIM AMALIYOTIDA METAPREDMETLI YONDASHUV

Imomaliyeva L.R.

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tizesda ta'limdagi metapredmetli yondashuv parchalanishdan, qismlarga bo'linishdan dunyoni yaxlit idrok etishga, metafaollikka haqida ma'lumotlar berilgan. Metapredmetlik - bu predmet yoki bir nechta predmetlarning orqasida joylashgan asosda va bir vaqtning o'zida ular bilan chuqur aloqada joylashgan narsa.

Kalit so'zlar: metapredmet, zaamonaviy ta'lim, ijodiylik, qobiliyat.

Аннотация: В данной дипломной работе даются сведения о метапредметном подходе в образовании, от фрагментации, разделения на части, к целостному восприятию мира и метаактивности. Метапредмет — это то, что лежит за объектом или несколькими объектами и в то же время глубоко с ними связано.

Ключевые слова: метапредмедицина, современное образование, креативность, способности.

Abstract: This thesis provides information about the meta-subject approach in education, from fragmentation, division into parts, to a holistic perception of the world and meta-activity. A meta-object is something that lies behind an object or several objects and at the same time is deeply connected with them.

Key words: meta-premedicine, modern education, creativity, abilities.

Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti talablariga muvofiq olimlarning fikriga ko'ra, ta'lim doimo jamiyatning ta'siri asosida turli jarayonlarni boshdan kechiriladi. XXI asrda yizaga kelgan ijtimoiy-madaniy sohadagi global o'zgarishlar va ilmiy-texnik omillar jamiyatning global axborotlashuvi sharoitida ma'lumotlarni yashin tezligida butun insoniyatga taqdim etish va etkazish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, zamonaviy talaba, o'quvchi, o'qituvchi axborotdan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan holda, uni o'qitish, kasbiy faoliyatda egallash, saqlash va ijodiy talqin qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

Zamonaviy sharoit har bir insondan mustaqil qarorlar qabul qilishni, jamiyatda o'z imkoniyatlarini amalga oshirish usullarini tushunishni talab etadi. Shuning uchun o'quvchi, talaba, o'qituvchi o'z-o'zini tashkil qilish texnologiyalariga ega bo'lishi va o'z-o'zini taqdim etish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurati mavjud.

Ta'lim jarayonini optimallashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy maktablar va universitetlar turli yondashuv va texnologiyalarni faol joriy etish zarurati bilan duch kelmoqda. Hozirgi vaqtda meta-bilim va meta-metodlarni shakllantirish o'rganishning markaziy vazifasiga aylanmoqda. Ta'limdagi metapredmetli yondashuv parchalanishdan, qismlarga bo'linishdan dunyoni yaxlit idrok etishga, metafaollikka o'tishni ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'limdagi "metapredmet", "metapredmetlilik" atamaları yangi ta'lim standartlari uchun ko'rsatmalar sifatida e'lon qilingan. Bularni ilmiy maktablar turlicha izohlaydi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Yu. V. Gromyko metapredmet mazmunini muayyan o'quv predmeti bilan bog'liq bo'lmagan, aksincha, har qanday o'quv predmeti doirasida o'quv jarayonini ta'minlaydigan faoliyat sifatida tushunadi [2]. A.V.Xutorskaya ilmiy maktabi yigirma yildan ko'proq vaqt davomida metapredmetli ta'lim faoliyatini amalga oshiradi, shu jumladan, metapredmet mazmuni va o'quv metapredmetlarini qamrab oladi. A.V.Xutorskaya metapredmetlikni "predmetlardan tashqariga chiqish, lekin tark etmaslik" deb tavsiflaydi. Metapredmetlik - bu predmet yoki bir nechta predmetlarning orqasida joylashgan asosda va bir vaqtning o'zida ular bilan chuqur aloqada joylashgan narsa. Metapredmetlik fan mazmunidan xolislikda ajralishi mumkin emas" [3]. A.V.Xutorskayaning nuqtai nazariga ko'ra, metapredmetlik har qanday ta'lim muhitining ajralmas qismidir.

Ta'lim amaliyotida metapredmetli ko'nikmalari shakllangan maktab va universitet bitiruvchilari, masalan, gipotezalarni ishlab chiqish va sinab ko'rishi, tashabbus va mustaqillik ko'rsatishi, jamoada ishlash qobiliyatlari rivojlangan bo'lishi lozim.

Yangi talablar o'qituvchidan nafaqat o'zgarishni, balki, ta'lim mazmuni, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. O'qituvchi – meta-usullardan foydalanish va meta-bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan yangi pedagogik vaziyatlarning, yangi vazifalarning "rejissiyori" ga aylanadi. Bugungi kunda metapredmetlilik – ta'lim jarayonini tashkil etishning zaruriy shartidir.

Nima uchun ta'lim amaliyoti metapredmetli yondashuvni amalga oshirishi zarur?

Birinchi, ilmiy bilimlarning jadal rivojlanishi boshlandi, o'tmishda ta'lim muayyan bilim sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan edi. Bu ilmiy fanlarning parchalanishiga olib keldi. Dunyoni idrok etishning ma'lum bir universalligi va yaxlitligi yo'qoldi. Lekin texnologik jarayon bizga ochiqlik va axborotlashtirish, bilimlarni bir zumda egallash imkonini berdi

Ikkinchi, metapredmetli yondashuvi nafaqat o'quvchi, talaba rivojlanishning yaxlitligini, balki ta'lim jarayonining barcha bosqichlarining uzluksizligini ta'minlaydi.

Uchinchi, meta-predmetli yondashuv ta'lim jarayonida fan mazmunini qayta tashkil etishni taklif qiladi, bunda bilim eslab qolish uchun ma'lumot emas, balki, amaliy faoliyatda mazmunli foydalaniladigan bilimdir.

To'rtinchi, metapredmetlilik o'qituvchiga faqat nima qilish kerak va nima qilish mumkinligiga muvofiq emas, istiqbol bilan ishlash imkonini beradi. Bunda o'qituvchi partnyor, t'yutor vazifasini bajaradi.

Zamonaviy ta'lim muassasida metapredmetlilik tamoyilini qanday amalga oshirish lozim?

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Eng samarali yo'l - tanlovli metapredmetli kurslarini joriy etishdir (Yu.V. Gromyko g'oyasiga o'xshash). Talabalar turli fan sohalari bo'yicha umumiy usullardan va yondashuvlardan foydalana oladilar. Bunday maxsus kurslarda talabalar o'rtasida jamoaviy o'zaro munosabatlarni shakllantirishda bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy fanlar o'quv amaliyotiga yanada qulayroq usulni kiritish mumkin - bular metapredmetli yondashuvining elementlari bo'lgan mashg'ulotlar sanaladi. Bunday mashg'ulotlarning tashkillashtirishning majburiy shartlari quyidagicha:

- falsafiy jihatdan tayanch tushunchalar bilan ishlash;
- ushbu tushunchaning falsafiy mohiyatini va uning semantikasini solishtirish asosida mavzu materialini mazmunan to'ldirish;
- ishning har bir bosqichida harakatlarning doimiy aks ettirilishi;
- muammoli vaziyatlarni yaratish;
- ta'lim oluvchilar kognitiv faoliyatini faollashtiruvchi ishning turli shakllari, usullari va uslublarini qo'llash.

Metapredmetli natijalariga erishish uchun tizim-faoliyat yondashuviga asoslangan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samarali vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, maktab o'qituvchilari va pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarini meta-predmetli yondashuvni amalga oshirish uchun o'qitishni tashkil etish sifatini alohida ta'kidlash joiz. Tayyorgarlik eng yuqori darajada tashkil etilishi zarur.

Bugungi kunda oldimizda pedagogika universitetlarida biologiya o'qitish metodikasini metapredmetli yondashuv asosida tashkil etish vazifasi turibdi. Mazkur vazifani muvaffaqiyatli ado etish, mazkur faoliyatni o'quv amaliyotida samarali tashkillashtirishning metodik jihatdan takomillashtirishni talab etadi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Скрипкина Ю. В. Метапредметный подход в новых образовательных стандартах: вопросы реализации // Интернет-журнал «Эйдос». – 2011. – № 4. – URL: <http://www.eidos.ru/journal/2011/0425-10.htm>.
2. Хуторской А.В. Метапредметное содержание и результаты образования: как реализовать федеральные государственные образовательные стандарты (ФГОС) // Интернет-журнал «Эйдос». – 2012. – № 1. – URL: <http://www.eidos.ru/journal/2012/0229-10.htm/>
3. F.F.Xidirov, L.Imomaliyeva Tabiiy fanlarni o‘qitishda metapredmetli yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlari // Myallim hem uzliksiz bilimlendirio‘. № 6/6. 2022 y. B. 153-156.
4. Л.Имомалиева Метакогнитивных педагогических технологий в обучении // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH // Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz . Volume 2 Issue 13, December 2022. – С. 488-493.
5. L.Imomaliyeva Application of metacognitive technologies in training future biology teachers // International Journal of Pedagogics, 3(10), 62–67. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue10-12>. – Pp. 62-67.
6. L.Imomaliyeva Improving the methodological training of future biology teachers based on metacognitive technologies // International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 16–18. 2023-10-22. <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1189>. –Pp. 16-18.